

CHET TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI O'RNI

Umidjon Malikov
O'zDJTU talabasi

Intro

Bugun jadallik bilan rivojlanib borayotgan paytda zamonaviy texnologiyalar har bir sohaga tobora kengroq kirib bormoqda va inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ko'pgina sohalarning ishini osonlashtirmoqdadir, ya'ni insonlar uchun murakkab bo'lgan jarayonlar ham texnologiyalar yordamida ancha sodda va qulay shaklga kelmoqda. Tillarni o'rganish borasida ham sezilarli yengilliklar yuzaga kelmoqda va bu jarayon oldingiga nisbatan ancha samaraliroq bo'lib bormoqda. Bugungi kunda insonlar uyda o'tirib ham til o'rganish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa vaqt va mablag'ni tejashga xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida til o'rganayotgan o'quvchilar an'anaviy darslar tizimiga nisbatan 35–40% tezroq yaxshi natijaga erishmoqda, bu esa texnologiyalarning samaradorligini yaqqol ko'rsatib bermoqda. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalarning o'rnini nihoyatda muhim ekanligini ishonch bilan aytish mumkin.

1. Mobil ilovalar

Birinchi navbatda, mobil ilovalar va turli onlayn platformalar ushbu imkoniyatni keng ommaga ochib berdi, ya'ni har bir inson o'z smartfoni orqali til o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, **Duolingo platformasidan 500 milliondan ortiq odam chet tillarini o'rganishmoqda**, bu esa uning naqadar ommalashganini ko'rsatadi. Statistika qaraganda, ushbu **ilovadan muntazam foydalanayotgan o'quvchilarning kundalik 10–15 daqiqa amaliyoti bir haftalik an'anaviy mashg'ulotga qaraganda ustun bo'lar ekan**. Buning sababi shundaki, ilovada talabalar doimiy ravishda olgan bilimlariga oid savollarga javob berishadi, xato qilsalar darhol to'g'rilashadi va yana o'tilgan dars savollariga qayta javob berishadi. Shu tarzda bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi. Bu esa qisqa vaqt ichida ko'proq natijaga erishishga yordam beradi va o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi. Bundan tashqari, bu **ilovadagi barcha darsliklar mutlaqo bepul bo'lib**, bu ham foydalanuvchilar uchun katta qulaylik yaratadi.

O'zbekistonda esa o'zimizning milliy brend "**Ibrat farzandlari**" (*Ibrat Academy*) **platformasi Duolingoga mos raqobatchi bo'la oladi**. Ibrat farzandlari – nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, dastlab xorijiy tillarni ommalashtirishga qaratilgan loyiha sifatida ish boshlagan. 2024-yil 5-mart kuni Adliya vazirligi tomonidan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2023-yil yakunida yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilgan ishlarga bag'ishlangan hisobotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga loyiha doirasida til o'rganayotganlar sonini 2024-yil yakunigacha 1 millionga yetkazilishi bo'yicha axborot berilgan. Yana bir yangilik shundan iboratki: endilikda o'zbek tiliga qiziquvchi chet elliklar Ibrat Academy ilovasi orqali bizning o'zbek tilimizni o'rganishlari mumkin, bu esa juda katta natijadir. Bu ilovadan foydalanuvchilar soni hozirgi kunga kelib 2 669 183 nafardan oshiqroq, bu esa loyiha keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Kurslar soni 30 ta bo'lib, diplom olganlar soni 2 125 533 taga yetgan, bu esa foydalanuvchilarning faol ishtirokini ko'rsatadi.

2. Youtube

Video va audio darsliklar ham o'quvchilarga katta yordam bermoqda. Ayniqsa, **zamonaviy raqamli platformalar orqali taqdim etilayotgan video materiallar** til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p odamlar YouTube platformasini faqatgina ko'ngil ochar platforma sifatida biladi, lekin statistik ma'lumotlarga ko'ra, **YouTube platformasidagi kontentning 60% dan ortig'i ingliz tilini o'rgatishga qaratilgan** bo'lib, bu esa ushbu platformaning ta'limiy imkoniyatlari qanchalik keng ekanligini ko'rsatadi. Ushbu platformada o'quvchilar **ideal talaffuzni eshitish**, so'z va iboralarni to'g'ri qo'llanishini kuzatish hamda **aniq misollar asosida ingliz tilini o'rganish** imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida, til o'rganish jarayonini yanada tushunarli va samarali qiladi.

Bundan tashqari, **ingliz tilini bilish boshqa tillarni o'rganishda ham muhim vosita** bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, o'quvchilar **ingliz tilidagi darsliklar, videolar va boshqa turdagi kontentlardan foydalanib**, turli xorijiy tillarni mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ingliz tilining **global til sifatidagi ahamiyatini** yanada oshiradi.

2021-yilda "Universitas Kristen Krida Wacana" ilmiy xodimlari Ignasia Yuyun va Fitri Yanti Simamora tomonidan nashr etilgan "**The Use of YouTube to Support EFL Students' Listening Skills**" nomli tadqiqotda YouTube platformasining til o'rganishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, **video materiallar, xususan YouTube videolari real va autentik materiallar sifatida xizmat qilib**, o'quvchilarning **tinglab tushunish (listening) ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega** ekanligi aniqlangan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, **YouTube videolaridan foydalanish orqali talabalar nafaqat listening darajasini oshiradi**, balki dars jarayonini "**qiziqarli**" va "**yoqimli**" deb baholaganliklari sababli **motivatsiya ham ortadi**.

Shuningdek, yana bir tadqiqotchi, olim va jurnalist Md. Mehedi Hasan tomonidan 2025-yilda olib borilgan "**Leveraging YouTube for EFL Learning**" nomli tahliliy tadqiqotda ham YouTube platformasining til o'rganishdagi samaradorligi alohida qayd etilgan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, **YouTube videolari tinglash, gapirish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita** hisoblanadi. Bundan tashqari, **bunday natijalarni ko'rgan o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiya sezilarli darajada oshadi**. Bu esa YouTube platformasining **nafaqat ko'ngil ochar, balki bilim beruvchi vosita** sifatida ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

3. Sun'iy intellekt

Texnologiyaning yana bir muhim afzalligi bu **sun'iy intellekt (AI) vositalaridir**. Yuqorida sanab o'tilgan **Duolingo** va **Ibrat Academy** ham o'z ta'lim tizimlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilgan. Bu esa o'quv jarayonini yanada zamonaviy va samarali qiladi.

Germaniyaning **Oldenburg universitetida** ta'lim texnologiyalari professori bo'lgan **Olaf Zavacki-Rixter Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education** (*Oliy ta'limda sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish*) nomli maqolasida sun'iy intellektga asoslangan tizimlar kontentni o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishi va shu orqali

til o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qilishini ta'kidlaydi. Ya'ni, AI har bir o'quvchining darajasi va ehtiyojini hisobga olib, unga mos materiallar taqdim etadi.

Bundan tashqari, **chat-botlar bilan muloqot qilish** o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, **AI bilan muntazam suhbat qilgan o'quvchilarning lug'at boyligi 20–25% ga oshadi**. Bu esa ularning so'z boyligi va fikr ifodalash qobiliyatining kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, sun'iy intellekt matnlarni tahlil qilib, **grammatik xatolarni aniqlash** va ularni tuzatishda yordam beradi. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantiradi hamda ularni xatolarini o'zlari tushunib tuzatishga o'rgatadi. Bundan tashqari, tadqiqotchi **Badalova Aziza Baxtiyorovna (2025)** tomonidan olib borilgan **“ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) TECHNOLOGIES ARE CONTRIBUTING TO FOREIGN LANGUAGE LEARNING”** nomli ilmiy ish ham shuni ko'rsatadiki, **AI texnologiyalari til o'rganish jarayonida nafaqat bilimni oshiradi**, balki o'quvchilarni **mustaqil o'rganishga ham rag'batlantiradi**. Yana bir muhim jihat shundaki, AI til o'rganuvchilarga **tezkor fikr-mulohaza (feedback)** berish imkonini yaratadi. Ya'ni, o'quvchi xato qilishi bilanoq darhol tuzatish oladi, qo'shimcha mashqlar bajaradi va o'z darajasiga mos bo'lgan virtual repeditorlikdan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

4. Onlayn visual dars platformalari

Onlayn dars platformalari ham chet tili o'rganuvchilar uchun juda qulay hisoblanadi. Ayniqsa, **zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan onlayn ta'lim platformalari** o'quvchilarga o'z vaqtini mustaqil boshqarish va istalgan joydan bilim olish imkoniyatini yaratmoqda. Jumladan, **Zoom, Coursera, Udemy kabi platformalarda minglab til kurslari mavjud bo'lib**, ularning aksariyati foydalanuvchilarga tizimli bilim berish bilan birga, **xalqaro sertifikatlar olish imkoniyatini ham taqdim etadi**. Bu esa o'quvchilar uchun nafaqat bilim olish, balki kelajakdagi akademik va kasbiy faoliyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, **butun dunyo bo'ylab ustozlar bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniyati** o'quvchilarning nutqiy madaniyatini yanada boyitadi. Turli mamlakat vakillari bilan muloqot qilish orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadi, balki uning madaniy jihatlarini ham anglay boshlaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, **onlayn suhbat klublarida qatnashgan yoshlar tilni amaliyotda qo'llashda 2 baravar faolroq bo'ladi**, bu esa real muloqotning o'rganish jarayonidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

2021-yilda chop etilgan **“The L2L System for Second Language Learning Using Visualised Zoom Calls Among Students”** nomli ilmiy maqolada onlayn platformalarning samaradorligi yanada chuqurroq o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda ishtirokchilar sifatida, jumladan, **bir universitetda ingliz tilini o'rganayotgan hamda boshqa universitetda fransuz tilini o'rganayotgan talabalar jalb etilgan**. Tadqiqot jarayonida talabalar **“tandem” shaklida, ya'ni ingliz-fransuz juftliklari yoki guruhlari ko'rinishida tashkil etilgan**, bu esa til almashinuvi (language exchange) jarayonini yanada samarali qilgan. Har bir **Zoom sessiyasi video va audio formatda yozib olingan**, shuningdek, **transcript funksiyasi ham yoqilgan**. Bu orqali suhbatga oid barcha nutqiy ma'lumotlar, ya'ni **kim qachon, qancha vaqt gapirgan va kimga javob berganligi** aniq qayd etilgan. Ushbu ma'lumotlar **“timestamped utterances” (vaqt bilan belgilangan nutq holatlari)** shaklida saqlanib, keyingi tahlil uchun asos bo'lib xizmat qilgan. So'ngra tizim tomonidan **maxsus “dashboard” — tahliliy panel yaratilgan bo'lib**, unda **timeline, grafiklar, nutq almashuvi, “turn-taking” (navbat**

bilan gapirish), suhbat dinamikasi kabi ko'rsatkichlar vizual tarzda aks ettirilgan. Bu esa o'quvchilarga o'z nutq faoliyatini aniq ko'rish va baholash imkonini bergan. Mazkur **metrikalar va video qayta ko'rish (playback) imkoniyati yordamida talabalar darsdan keyin o'z nutqini tahlil qilishi**, xatolarini aniqlashi va o'z ustida ishlashi mumkin bo'lgan. Ayniqsa, bu jarayon o'quvchilarda **“self reflection” (o'zini tahlil qilish)** ko'nikmasini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. **L2L tizimi bir semestr davomida amalga oshirilgan bo'lib, jami taxminan 250 soatlik Zoom sessiyalari yozib olingan.** Ushbu tizim orqali talabalar o'rtasida **til almashinuvi (language exchange) samarali tashkil etilgan**, natijada o'quvchilarning til ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangan. Ayniqsa, **kontekstli suhbatlar va real muloqot muhiti mavjud bo'lgani sababli tilni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyati yaratilgan.** Bundan tashqari, **video yozuvlar, vizual tahlil va turli metrikalar orqali talabalar o'z nutqini baholash, xatolar ustida ishlash va o'z rivojlanishini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lgan**, bu esa onlayn ta'lim platformalarining samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar chet tilini o'rganishda ulkan imkoniyatlar yaratmoqda va bu imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Mobil ilovalar, sun'iy intellekt, onlayn kurslar va audiovizual vositalar o'quvchilarga tez, samarali va mustaqil o'rganish imkonini bermoqda. Shuning uchun ham yoshlarning texnologiyadan to'g'ri foydalanishi ularning chet tili o'rganishdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi va bu jarayonni yanada samarali qiladi..

Ma'lumot olingan manbalar:

1. Ibrat Farzandlari til o'rgatish loyihasi doirasida mobil ilova ishlab chiqildi“. Qaraldi: 5-mart 2024-yil. Qaraldi: 13-aprel 2026-yil.
2. “Ibrat farzandlari” nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazildi“. Adliya vaziri matbuot kotibi. Qaraldi: 5-mart 2024-yil Qaraldi: 13-aprel 2026-yil.
3. Ёшлар билан ишлаш тизими бўйича ахборот берилди“. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot xizmati. Qaraldi: 5-mart 2024-yil. Qaraldi: 13-aprel 2026-yil.
4. “Ibrat farzandlari” rasmiy sayti. 13-aprel 2026-yil.
5. “Ellter journal” <https://journal.uhamka.ac.id/ellter-j/article/view/7512?utm> 13-aprel 2026-yil.
6. “Zenodo” <https://zenodo.org/records/15568391?utm> 13-aprel 2026-yil.
7. “DCU” <https://doras.dcu.ie/26031/?utm> Qaraldi: 13-aprel 2026-yil.
8. “Zawacki-Richter, O., et al. – (Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education) (2019)” <https://link.springer.com/content/pdf/10.1186/s41239-019-0171-0%E2%80%8C> Qaraldi: 13-aprel 2026-yil.
9. “Md. Mehedi Hasan” <https://www.educasia.or.id/index.php/educasia/article/view/379> Qaraldi: 13-aprel 2026-yil.